

**ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA
PREVENTIV DIPLOMATIYANING NAZARIYALARI**

Narzullayev Firdavsiybek Fayzullo o'g'li

Toshkent shahridagi Amity univeristeti,
O'quv va ilmiy tatqiqotlarini rivojlantirish bo'limi mutaxasisi

Email: nfirdavsiybek@gmail.com

Tel: +998 94 329 56 46

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida preventiv diplomatiyaning o'рни va ahamiyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Ayniqsa, Sovuq urushdan keyingi davrda, xususan Sovet Ittifoqining parchalanishidan so'ng, xalqaro hamjamiyat tomonidan mojarolar va qurolli to'qnashuvlarning oldini olishga qaratilgan diplomatik yondashuvlarning kuchaygani asoslab beriladi. Tadqiqotda preventiv diplomatiyaning nazariy shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida rivojlanishi yoritiladi. Dag Xammarshyold, Butros Butros-G'ali, Kofi Annan va Maykl Lund kabi yetuk siyosiy arboblari va olimlarning qarashlari asosida preventiv diplomatiya tushunchasining mazmuni, maqsadlari hamda asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Maqolada preventiv diplomatiyaning turlari, xususan oldindan mo'ljallangan tinchlikni tiklash, oldindan chora ko'rish va inqirozlarning oldini olish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy preventiv diplomatiya o'rtasidagi farqlar ochib berilib, axborot asri va texnologik rivojlanish sharoitida ushbu diplomatik yondashuvning ko'p tomonlama va ko'p subyektli xususiyat kasb etgani ta'kidlanadi. BMT faoliyati doirasida Afrikadagi mojarolar, xususan Kongo Demokratik Respublikasidagi inqirozlar misolida preventiv diplomatiyaning amaliy samaradorligi ko'rsatib beriladi.

Shu bilan birga, maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida, ayniqsa O'zbekiston tashqi siyosatida preventiv diplomatiya va yaxshi qo'shnihilik tamoyillarining mustahkamlanishi alohida tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy xavfsizlik, hamkorlik va mojarolarni oldini olishga oid qarashlari preventiv diplomatiyaning zamonaviy amaliy namunasida yoritiladi. Xulosa qismida preventiv diplomatiyaning global xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati, shuningdek suv diplomatiyasi va transchegaraviy suv resurslari bilan bog'liq nizolarni hal etishdagi o'rni ilmiy jihatdan umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: Preventiv diplomatiya, xalqaro munosabatlar, mojarolarning oldini olish, BMT, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, suv diplomatiyasi

Kirish: Hozirgi kunda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida preventiv diplomatiyaning ahamiyati sezilarli ravishda oshib bormoqda. Bu ayniqsa Sovet rejimining parchalanishidan so'ng ayniqsa ko'zga tashlanadi. Dunyo hamjamiyati urushlarni, muammolarni avj olib ketishidan avval oldini olishga harakat qila boshladi¹. Ushbu diplomatiya ko'plab muammolarni atroflicha hal qilishga yordam berganini ma'lum bir hudud yoki davlatlar misolida amaliy jihatdan ko'rishimiz mumkin.

Har bir nazariyaning o'ziga xos paydo bo'lish tarixi mavjud bo'lganidek, preventiv diplomatiyaning nazariya sifatida paydo bo'lishi tarixi ham o'ziga xos. Dastlab ushbu atama XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab BMTning bosh kotiblari nutqlarida yangray boshladi. Preventiv diplomatiyaning paydo bo'lishi va qo'llanishidan maqsad avvalo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro harbiy to'qnashuvlarni oldini olish, nizolarni mintaqaviy va xalqaro miqyosida avj olib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun qo'llanilgan va qo'llanilmoqda.

¹ Gerhardus.S.S. "The Role of Preventive Diplomacy in African Conflicts: A Case Study of the Democratic Republic of the Congo"-1998-2004. Pretoria: 2008 april. P-36. [Tashrif Vaqti 23.12.2024]

Preventiv diplomatiya tushunchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi bilan birga rivojlanib bordi. Bunga dalil sifatida BMTning asosiy shartnomasi (Birlashgan Millatlar Nizomi, 1945) millatlar o'rtasidagi mojarolarni qanday oldini olish kerakligini belgilab berganidan ham ko'rishimiz mumkin². Ayniqsa diplomatlar, xususan, BMTning bosh kotiblari, preventiv diplomatiyaning xalqaro standartini o'rnatdilar. 1953-1961-yillarda xizmat qilgan BMTning ikkinchi Bosh kotibi Hammarshyold o'z faoliyati davomida ushbu diplomatiyani rivojlantirdi va xalqaro hamjamiyatda "preventiv diplomatiyaning Kabutari" sifatida tanilgan³. Aynan uning 1960-yilda Janubiy Afrika bo'yicha Xavfsizlik Kengashiga taqdim etilgan hisobotida Hammarshyold birinchi marta "preventiv diplomatiya" iborasini ishlatgan. Ushbu diplomatiya siyosiy muomalaga BMT bosh kotibi Boutros Boutros-G'alining 1992-yil 17-iyulda BMT bosh Assambleyasining 47-sessiyasida taqdim etilgan "Tinchlik kun tartibi" nomli hisobotida e'lon qilingandan so'ng kirib kelgan va keng miqyosida ishlatilishni boshlagan⁴.

Asosiy qism: Preventiv diplomatiya "Tomonlar o'rtasida mojaro yuzaga kelishining oldini olish, mavjud mojarolarni zo'ravonlikka aylanishidan oldin to'xtatish va zo'ravonlik yuzaga kelganda uning keng miqyosida tarqalishini cheklash uchun amalga oshiriladigan harakatlar"dir deb ta'riflagan edi Boutros G'ali⁵. Ushbu diplomatiyaning asosiy maqsadi mojarolarni yoki muammolarni ularni boshqarib bo'lmaydigan holatga kelishidan oldin hal qilish uchun maqsadli harakatlar qilish kerakligini ta'kidlaydi⁶. Bundan tashqari preventiv

² Djibom, J. "An Analysis of Hammarshyold's Theory of Preventive Diplomacy" - Peace operation training institute: Apr 2008: P-11. [Tashrif Vaqti 23.12.2024]

³ Toren.G. Andersson.L.L. "Dag Hammarskyold Literature"-Uppsala. August 2011. P-17. [Tashrif Vaqti 25.12.2024]

⁴https://unrcca.unmissions.org/sites/default/files/preventive_diplomacy_eng_2020.pdf [Tashrif Vaqti 25.12.2024]

⁵ Preventive diplomacy resource book by UN 2020 and beyond. P-42. [Tashrif Vaqti 26.12.2024]

⁶ Stephan.G.S "The Role of Preventive Diplomacy in African Conflicts: A Case Study of the Democratic Republic of the Congo: 1998-2004"-Pretoria april 2008 P-36. [Tashrif Vaqti 26.12.2024]

diplomatiya asosan zo‘ravonliklar yuzaga kelishidan oldin nizolarni hal qilishni maqsad qiladi.

Xalqaro munosabatlar sohasida 20 yildan ortiq tajribaga ega bo‘lgan Maykl Lundning ta’rifiga ko‘ra preventiv diplomatiya “Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va xalqaro o‘zgarishlarning beqarorlashtiruvchi ta’sirdan kelib chiqadigan siyosiy nizolarni hal qilishda davlatlar yoki guruhlar tomonidan qurolli kuch ishlatish yoki bosim o‘tkazish xavfini oldini olish uchun mo‘ljallangan joy va vaqtlarda amalga oshiriladigan harakatlaridir”⁷. Maykl Lundning boshqa bir asarida yozishicha “Boutros-G‘ali tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, preventiv diplomatiya deyarli har qanday potensial yoki real zo‘ravonlik holatlarini hal qilish uchun chora ko‘rishni anglatadi. Ushbu ta’rif nizolarning asosiy sabablarini bartaraf etishni (nizolarni oldini olish), nizolarni zo‘ravonlikka aylanishidan to‘xtatishni (zo‘ravonlikning oldini olish) va yuzaga kelgan zo‘ravonlikni kuchayib ketishidan cheklash (zo‘ravonlikni jilovlash)ni o‘z ichiga oladi⁸. Preventiv diplomatiyaning asosiy jihatlaridan biri bu uni faollashtirish vaqti va mintaqasidir. Ya’ni muammolarning avj olib ketishidan oldin ushbu diplomatiyani faollashtirish juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari diplomatiyaning bu turi mintaqalarga va muammolarga qarab farqlanishi mumkin. bundan kelib chiqadiki preventiv diplomatiya turli xil faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi.

So‘ngi ellik yil ichida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan urush va mojarolarni oldini olish asosiy e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Tarix kitoblarida ham harbiy intervensiyalar ko‘p hollarda foydadan ko‘ra ko‘proq zarar keltirishi ko‘plab ta’kidlanadi⁹. Aynan shuning uchun ham millionlab

⁷ Lund.M.S. “Preventing violent conflicts: A strategy for Preventive Diplomacy”. Washington D.C.: United States Institute of Peace Press. 1996. P-37. [Tashrif Vaqti 29.11.2024]

⁸ Lund, M.S. “Early Warning and Preventive Diplomacy in Conflict Resolution”, Volume III, Edited by Daniel Druckman, and Paul F. Diehl, London: SAGE Publications. 2006. P-49. [Tashrif Vaqti 06.01.2025]

⁹ Lindaman.D. Ward.K. “History lessons”. New York: The New Press. (2004). P-335. [History Lessons: How Textbooks from Around the World Portray U.S. History - Dana Lindaman, Kyle Ward - Google Книги](#) [Tashrif Vaqti 08.01.2025]

begunoh kishilarning azob-uqubatlarini to'xtatish va qurolli mojarolarga barham berishga qaratilgan sa'y-harakatlar preventiv diplomatiya sifatida qo'llaniladi.

Yuqorida aytganimizdek preventiv diplomatiyaning ham qadimiy va zamonaviy ko'rinishidagi turlari mavjud. Oddiy shaklda an'anaviy preventiv diplomatiya davlatlar bir-biri bilan ma'muriy darajada siyosiy muzokaralar bo'yicha ixtisoslashgan diplomatlar yordami bilan aloqada bo'lish g'oyasiga asoslangan¹⁰. Bunga misol tariqasida muallif, Yunon inqilobi (1821–1832), Belgiya inqilobi (1830–1838) va Usmoniylar imperiyasidagi arman qo'zg'olonlari (1878–1914) davrlaridagi mojarolarni boshqarish uchun reaktiv turdagi preventiv diplomatiyadan foydalanilganini keltiradi. Preventiv diplomatiyaning zamonaviy tushunchasi esa o'zaro mojarolarni erta aniqlash va ularga ijtimoiy aralashuvni xalqaro siyosatning asosiy vazifasi sifatida ko'radi. Bu esa preventiv diplomatiyaning inqirozni boshqarish va siyosiy muzokaralar bilan tenglashtiradi¹¹.

Axborot asri va texnologiyaning mehnat hamda iqtisodiy bozorlarida yuzaga kelgan inqilobi tufayli yangilangan preventiv diplomatiyasi muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, ko'p sohalarni qamrab oluvchi resurslarga tayanadi. An'anaviy preventiv diplomatiyasi faqat davlat rahbarlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, zamonaviy preventiv diplomatiyasi esa butun dunyo bo'ylab ko'plab tashkilotlar va shaxslarning birlashgan sa'y-harakatlarini talab qiluvchi jarayon sifatida tan olingan¹².

BMTning ikkinchi bosh kotibi bo'lgan Hammarshyold tomonidan bir necha marta preventiv diplomatiya Afrika mamlakatlariga nisbatdan qo'llanilgan. Ayniqsa Kongo Demokratik Respublikasida ichki urushlarni

¹⁰ Steiner.B.H. "Collective preventive diplomacy, a study in international conflict management". Albany, New York: University of New York Press. (2004) P-19. [Tashrif Vaqti 10.01.2025]

¹¹ Cahill.K.M. "Preventive diplomacy. Stopping wars before they start". New York: Routledge. (2000). P-15. [Tashrif Vaqti 10.01.2025]

¹² Boutros-Ghali.B. "An agenda for peace: Preventive diplomacy, peacemaking and peace-building".1992 P-24. [Tashrif Vaqti 10.01.2025]

oldini oldi¹³. Hammarshyoldning diplomat sifatidagi muvaffaqiyati va uning preventiv diplomatiyasi nazariyasining samaradorligi, qisman, hayotga va nizolarni hal qilishga bo'lgan falsafiy va psixologik yondashuvda Sharq va G'arb ma'naviyatini uyg'unlashtirganida edi¹⁴. Hammarshyold BMTni davlatlarga va hukumatlarga inqirozlar keng qamrovli mojarolarga aylanib ketishidan oldin oldindan harakat qilish, ya'ni oldini olish diplomatiyasini amalga oshirish imkonini beradigan mexanizm sifatida ko'rgan¹⁵. Hammarshyold tomonidan ishlab chiqilgan yangi preventiv diplomatiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro nizolarni hal qilishda qo'llaniladigan asosiy vositalaridan biriga aylandi. Ushbu konsepsiya Hammarshyoldning vafotidan keyin shakllana boshladi, biroq sovuq urushi davrida unutilgan edi. Faqat qirq yil o'tib, Butros G'ali va Annan uni yana qayta tiklab, jamoatchilik e'tiboriga olib chiqishdi¹⁶.

Sovuq urushning oxirlarida, BMTning oltinchi Bosh kotibi (1992-1996) va Afrikadan saylangan birinchi nomzod Butros-G'ali Hammarshyoldning preventiv diplomatiyasi konsepsiyasini yanada rivojlantirdi. Uning davrida Butros-G'ali BMTga bir qancha jiddiy hisobotlar taqdim etdi, ular tinchlikni saqlash operatsiyalari uchun qo'llanma sifatida xizmat qildi. 1992-yilgi "Tinchlik kun tartibida"¹⁷ Butros-G'ali preventiv diplomatiyaga, ya'ni inqirozlar oldini olishda tinch yo'llarni qo'llashga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda preventiv diplomatiyaning to'liq ta'rif Butros-G'alining maxsus nutqlaridan kelib chiqadi: "Oldini olish diplomatiyasi, tomonlar o'rtasida mojaro yuzaga kelishining oldini olish, mavjud nizolarning katta

¹³ Dayal.R. "Mission for Hammarskjöld: The Congo crisis"-Princeton, NJ: Princeton University Press. 1976. [Tashrif Vaqti 12.01.2025]

¹⁴ Hammarskjöld.D. "The light and the rock: The vision of Dag Hammarskjöld", 1st ed. New York: Dutton. 1966. [Tashrif Vaqti 10.01.2025]

¹⁵ Settel, T. S. (1966). The light and the rock. The vision of Dag Hammarskjöld. New York: E. P. Dutton & Co

¹⁶ Urquhart, Brian. Hammarskjöld. New York: Knopf. 1972. [Tashrif Vaqti 10.01.2025]

¹⁷ Boutros-Ghali.B. "An agenda for peace: Preventive diplomacy, peacemaking and peace-building".1992. P-26. [Tashrif Vaqti 11.01.2025]

mojarolarga aylanib ketishidan saqlash va bunday mojarolar yuz bergan taqdirda uning tarqalishini cheklash uchun amalga oshiriladigan harakatdir”¹⁸.

Butros-G‘alining “Tinchlik kun tartibi” (1992-yil) Hammarshyoldning nazariyasini tasdiqladi, ya’ni diplomatiyaning eng yaxshi qo‘llanilishi-bu taranglikni inqirozga aylanishidan oldin oldini olishdir. “Tinchlik kun tartibida” Butros-G‘ali shuningdek nafaqat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotiblari, balki agentliklar ham preventiv diplomatiyani amalga oshirish imkoniyati mavjudligini ta’kidladi va ishonchni mustahkamlash choralari, nizolarni boshqarishda muhimligini aytdi¹⁹.

“Tinchlik kun tartibida” preventiv diplomatiyaga bag‘ishlangan maxsus bo‘lim mavjud bo‘lib, unda tomonlar o‘rtasidagi nizolarni yuzaga kelishining oldini olish, mavjud nizolarning mojarolarga aylanib ketishidan saqlash va bunday mojarolar yuz bergan taqdirda uning tarqalishini cheklashga qaratilgan harakatlar keltirilgan (III Bo‘lim, 20-paragraf).

Butros-G‘ali “Rivojlanish kun tartibi” (1994-yil) nomli dokladida preventiv diplomatiyaning rivojlanish konsepsiyasini tariflab, “iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning eng samarali usuli” sifatida ta’riflagan. Ushbu asarida shuningdek preventiv diplomatiyani amalga oshirishning bir qancha komponentlarini aniqlab beradi: 1) ishonchni mustahkamlash, 2) axborot to‘plash va almashish asosida erta ogohlantirishlar, 3) oldini olish va demilitarizatsiya zonalaridan foydalanish²⁰.

BMTning boshqa bosh kotiblari ham preventiv diplomatiyaning nazariy asoslarini yaratishda va uni amalda qo‘llashda ham katta jonbozliklar ko‘rsatishgan. Misol uchun Kofi Annan, BMTning yettinchi Bosh kotibi bo‘lib, 1997-2006 yillar davomida faoliyat yuritgan va Afrikadan saylangan ikkinchi nomzod hisoblanib, o‘zining avvalgi rahbarining preventiv diplomatiyasiga oid

¹⁸ Ibid. p-27.

¹⁹ Ibid. p-27.

²⁰ Boutros-Ghali, Boutros. “An agenda for development”. 1994. <http://www.un.org/Docs/SG/agdev.html> [Tashrif vaqti 11.01.2025]

ta'rifini yanada rivojlantirdi. 1999-yilda BMTning "Faoliyatiga doir yillik hisoboti"da Annan xalqaro mojarolar va tabiiy ofatlarni oldini olish borasidagi global muammolarni ta'kidlab o'tdi²¹. U preventiv diplomatiyani, oldini olish harakatlarining markaziy tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi²².

Annan o'zidan oldingi hamkasbi Butros-G'alining izidan borib uning qarorlarini yanada mustahkamladi. Annan har doim mojarolarni oldini olishning ahamiyatini ta'kidladi, jumladan, mojarolarni keltirib chiqaradigan ildiz sabablarini bartaraf etish va global integratsiyalashgan yondashuv zaruratini ayniqsa muhim ekanligini ta'kidladi. U o'zining "Urush va Ofatlarni Oldini olish: Kengayib Borayotgan Global Muammo" (1999-yil) asarida shunday degan edi: "Birlashgan Millatlar Tashkiloti uzoq vaqtdan beri oldini olish davolanishdan yaxshiroq ekanligini ta'kidlab keladi, biz ildiz sabablarini muhokama qilishimiz kerak, faqat ularning alomatlarini emas" va "bizning intilishimiz hali samarali harakatlar bilan amalga oshirilmagan"²³. Bundan tashqari uning 2000-yildagi "Millennium Report"ida ham uzoq muddatli mojarolarni oldini olishga oid kuchli fikrlarni bildirdi, va bu Butros-G'alining "Tinchlik kun tartibi" (1992)dagi ta'riflariga o'xshash edi.

Muammolarni avj olib ketishidan oldin hal qilish va Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnichilik aloqalarini olib borish, ayniqsa O'zbekistonning ikkinchi hukumati hokimiyatga kelgandan keyin anchayin rivojlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu holatni quyidagicha ta'riflaydi: "Bugun biz yashayotgan, jarayonlar o'zaro chambarchas bog'langan dunyoda xavfli muammolar girdobidan chiqishning yakka-yu yagona yo'li — konstruktiv muloqot va har bir tarafning

²¹K. Anann. "Preventing war and disaster: a growing global challenge"-New York: United Nations 1999.P-56. [Tashrif Vaqti 15.01.2025]

²² H.Sato. "Containing conflict. Cases in preventive diplomacy". New York: Brookings Institution Press 2003 [Tashrif Vaqti 15.01.2025]

²³ K. Anann. "Preventing war and disaster: a growing global challenge". New York: United Nations (1999). <https://sanctionsplatform.ohchr.org/search?f1=author&as=1&sf=title&so=a&rm=&m1=e&p1=Annan%2C%20Kofi%2C%201938-2018&ln=ru> [Tashrif Vaqti 15.01.2025]

manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko‘p tomonlama hamkorlikdir. Aynan inqiroz va bo‘hronlar davrida mamlakatlar, ular xoh katta, o‘rta yoki kichik bo‘lsin, o‘zlarining tor doiradagi manfaatlarini ustun qo‘ymasdan, aksincha, asosiy e‘tiborni global hamjihatlikka qaratishlari lozim. Tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga xavf tug‘dirayotgan, har qaysi mamlakatga raxna soladigan tahdid va xatarlarga qarshi umumiy sa’y-harakat va imkoniyatlarni birlashtirish va safarbar etish barchamiz uchun birdek manfaatlidir”²⁴.

Bundan tashqari mamlakat rahbari mintaqada tinchlikni saqlash borasida o‘zaro hamjihatlik va birdamlikni oshirish kerakligini ta’kidlab quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan tahdid va xatarlar kuchaymoqda. Shu bois hushyorlik va ogohlikni oshirish, o‘zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo‘lib yashash hayotning o‘tkir zaruriyatiga aylanmoqda”²⁵.

Xulosa: Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki xalqaro munosabatlar tizimida preventiv diplomatiya tinchlikni ta’minlash va mojarolarning oldini olishda muhim vosita sifatida shakllandi. U Sovuq urushdan keyingi davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etib, BMT kabi xalqaro tashkilotlar faoliyatida ustuvor yo‘nalishga aylandi. Ushbu diplomatik yondashuvning nazariy asoslari Dag Xammarshyold, Butros Butros-G‘ali va Maykl Lund kabi yetuk arbob va olimlar tomonidan shakllantirildi. Ular preventiv diplomatiyani nafaqat mojaro chiqqanidan keyin emas, balki undan oldin siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar orqali mojaroni jilovlashga

²⁴ G‘afurov.S. “Markaziy Osiyo: Mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar”- Toshkent: “MERIT PRINT”, 2023. B-11. [Tashrif Vaqti 17.01.2025]

²⁵ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B-253. [Tashrif Vaqti 17.01.2025]

qaratilgan tizimli yondashuv sifatida talqin qiladilar. Zamonaviy davrda bu yondashuv yangi texnologiyalar, nodavlat aktorlar va mintaqaviy tashabbuslarning jalb qilinishi bilan yanada kengaymoqda. Shunday qilib, preventiv diplomatiya nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham global xavfsizlikni ta'minlashda ajralmas vositaga aylanmoqda. Bu ayniqsa suv diplomatiyasi va suv masalalarini hal qilish bo'yicha ko'plab qo'llanmoqda. Buning natijasida ko'plab suv resurslari bilan bog'liq muammolar hal qilinganini yuqorida ham guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gerhardus, S. S. (2008). The Role of Preventive Diplomacy in African Conflicts: A Case Study of the Democratic Republic of the Congo (1998–2004). Pretoria. p. 36. [Tashrif vaqti: 23.12.2024].
2. Stephan, G. S. (2008). The Role of Preventive Diplomacy in African Conflicts: A Case Study of the Democratic Republic of the Congo (1998–2004). Pretoria. p. 36. [Tashrif vaqti: 26.12.2024].
3. Djibom, J. (2008). An Analysis of Hammarskjöld's Theory of Preventive Diplomacy. Peace Operations Training Institute. p. 11. [Tashrif vaqti: 23.12.2024].
4. Toren, G., & Andersson, L. L. (2011). Dag Hammarskjöld Literature. Uppsala. p. 17. [Tashrif vaqti: 25.12.2024].
5. United Nations. (2020). Preventive Diplomacy Resource Book: 2020 and Beyond. United Nations. p. 42. [Tashrif vaqti: 26.12.2024].
6. United Nations Regional Centre for Preventive Diplomacy for Central Asia (UNRCCA). (2020). Preventive Diplomacy. [Tashrif vaqti: 25.12.2024].
7. Lund, M. S. (1996). Preventing Violent Conflicts: A Strategy for Preventive Diplomacy. Washington, D.C.: United States Institute of Peace Press. pp. 173–179. [Tashrif vaqti: 06.01.2025].

8. Lund, M. S. (2006). Early warning and preventive diplomacy in conflict resolution. In D. Druckman & P. F. Diehl (Eds.), *Conflict Resolution* (Vol. III). London: SAGE Publications. p. 49. [Tashrif vaqti: 06.01.2025].
9. Jentleson, B. W. (1996). *Preventive Diplomacy and Ethnic Conflict: Possible, Difficult, Necessary*. Policy Paper No. 27. University of California, Institute on Global Conflict and Cooperation. p. 7. [Tashrif vaqti: 06.01.2025].
10. Jentleson, B. W. (Ed.). (2000). *Opportunities Missed, Opportunities Seized: Preventive Diplomacy in the Post-Cold War World*. New York: Carnegie Commission on Preventing Deadly Conflict. p. 12. [Tashrif vaqti: 08.01.2025].
11. Steiner, B. H. (2004). *Collective Preventive Diplomacy: A Study in International Conflict Management*. Albany, NY: State University of New York Press. p. 19. [Tashrif vaqti: 10.01.2025].
12. Cahill, K. M. (2000). *Preventive Diplomacy: Stopping Wars Before They Start*. New York: Routledge. p. 15. [Tashrif vaqti: 10.01.2025].
13. Boutros-Ghali, B. (1992). *An Agenda for Peace: Preventive Diplomacy, Peacemaking and Peace-building*. United Nations. pp. 24–27. [Tashrif vaqti: 10–11.01.2025].
14. Boutros-Ghali, B. (1994). *An Agenda for Development*. United Nations. [Tashrif vaqti: 11.01.2025].
15. Annan, K. (1999). *Preventing War and Disaster: A Growing Global Challenge*. New York: United Nations. p. 56. [Tashrif vaqti: 15.01.2025].
16. Annan, K. (2000). *Millennium Report*. United Nations. [Tashrif vaqti: 15.01.2025].
17. Sato, H. (2003). *Containing Conflict: Cases in Preventive Diplomacy*. New York: Brookings Institution Press. [Tashrif vaqti: 15.01.2025].
18. Dayal, R. (1976). *Mission for Hammarskjöld: The Congo Crisis*. Princeton, NJ: Princeton University Press. [Tashrif vaqti: 12.01.2025].

19. Hammarskjöld, D. (1966). The Light and the Rock: The Vision of Dag Hammarskjöld. New York: E. P. Dutton & Co. [Tashrif vaqti: 10.01.2025].
20. Urquhart, B. (1972). Hammarskjöld. New York: Knopf. [Tashrif vaqti: 10.01.2025].
21. Lindaman, D., & Ward, K. (2004). History Lessons: How Textbooks from Around the World Portray U.S. History. New York: The New Press. p. 335. [Tashrif vaqti: 08.01.2025].
22. G‘afurov, S. (2023). Markaziy Osiyo: Mintaqaviy tahdidlar, integratsiya va zamonaviy siyosiy jarayonlar. Toshkent: Merit Print. p. 11. [Tashrif vaqti: 17.01.2025].
23. Mirziyoyev, Sh. (2022). Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent: O‘zbekiston. p. 253. [Tashrif vaqti: 17.01.2025].